

***Sattorova Ruxshona Rafiqjon qizi***

*Davolash ishi 2-bosqich talabasi*

***Kamalova Dilfuza Adilovna .***

*CAMU, “Anatomiya va mikroanatomiya kafedrası” assistenti*

***Annotatsiya:*** Mazkur maqola yuqori nafas yo‘llari allergik kasalliklari va ularning shilliq qavatida keltirib chiqaradigan o‘zgarishlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda allergik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, shilliq qavatda yuz beradigan yallig‘lanish jarayonlari, giperemiya, gipersekretsiya va epitelial o‘zgarishlar batafsil ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, kasallikni aniqlash, diagnostika usullari va davolash yo‘nalishlari yoritiladi.

***Kalit so‘zlar:*** yuqori nafas yo‘llari, allergik kasalliklar, shilliq qavat, yalli g‘lanish, gipersekretsiya, allergik rinit, immunoterapiya, antihistamin preparatlar.

**Changes in the Mucosal Layer in Allergic Diseases of the  
Upper Respiratory Tract**

***Sattorova Ruxshona Rafiqjon qizi***

*2nd-year student, Medical Treatment*

***Kamalova Dilyuza Adilovna***

*Assistant, CAMU - "Department of Anatomy and Microanatomy"*

***Abstract:*** This article addresses changes in the mucosal layer caused by allergic diseases of the upper respiratory tract and their effects on the body. It explores the causes of allergic diseases, the processes of inflammation in the mucosal layer, hyperemia, hypersensitivity, and epithelial changes. The study also discusses diagnostic methods and treatment approaches for these diseases in detail.

*Keywords: Upper respiratory tract, allergic diseases, mucosal layer, inflammation, hyperemia, hypersensitivity, allergic rhinitis, immunotherapy, antihistamine medications.*

Mavzuning dolzarbligi. Yuqori nafas yoʻllari allergik kasalliklari – odam organizmining turli allergenlarga haddan tashqari sezgirliги natijasida yuzaga keladigan kasalliklar toʻplamidir. Asosan burun, halqum va tomoq sohasida namoyon boʻlib, yalligʻlanish jarayonlarini keltirib chiqaradi. Bu kasalliklar nafas olish yoʻllarida shilliq qavatning tuzilishi va faoliyatida sezilarli oʻzgarishlarga sabab boʻladi. Yuqori nafas yoʻllari allergik kasalliklari soʻnggi yillarda keng tarqalib, koʻplab insonlar hayot sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, dunyo aholisining qariyb 20 – 30 foizi allergik kasalliklardan aziyat chekmoqda, ularning katta qismi yuqori nafas yoʻllarida yalligʻlanishlar bilan bogʻliq. Soʻnggi yillarda kasallikning epidemiologic koʻrsatkichlari ishib, ayniqsa rivojlangan va urbanizatsiya darajasi yuqori boʻlgan mamlakatlarda koʻp uchrayotgani qayd etilmoqda. Urbanizatsiya darajasining ortishi bilan havodagi allergenlar, sanoat chiqindilari va transport vositalaridan kelib chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar koʻpaymoqda. Bu esa yuqori nafas yoʻllari kasalliklarning keng tarqalishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, bolalar va katta yoshdagi insonlar orasida bu kasallikning tarqalishi keskin oshib bormoqda. Allergik rinit va boshqa yuqori nafas yoʻllari kasalliklari bemorlarning tez – tez shifokorga murojaat qilishiga va dori vositalarini uzoq muddat qabul qilishga sabab boʻladi. Bu holat sogʻliqni saqlash tizimiga sezilarli iqtisodiy yuk solmoqda. AQSH da allergik rinit davosi uchun yillik xarajat 3milliard dollardan oshadi. Allergik kasalliklarni oʻz vaqtida davolamaslik yoki notoʻgʻri tashxislash surunkali rinosinusit, bronxial astma va boshqa nafas yoʻllari kasalliklariga olib keladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, allergik rinitga chalingan bemorlarning 30 – 40% bronxial astmaga moyil boʻladi. Koʻplab bemorlar oʻz simptomlarini oddiy shamollash yoki mavsumiy oʻzgarishlar bilan bogʻlab allergik kasalliklarni eʼtiborsiz qoldiradi. Bu esa kasallikning surunkali shakllariga oʻtishiga va bemorlarning hayot sifatining pasayishiga olib keladi. Iqlim oʻzgarishlari tufayli

o‘simliklar gullash fasllarining uzayishi va polen miqdorining ko‘payishi allergic kasalliklarning mavsumiy ko‘rsatkichlarini oshirmoqda. Bu holat aniqsa bahor va kuz fasllarida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Ko‘pgina rivojlanayotgan davlatlarda nafas yo‘llari allergic kasalliklari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmayapti. Bu esa kasallikning keng ko‘lamda oldini olish choralarini ishlab chiqishni qiyinlashtirmoqda. Allergenlarga javoban immune tizimi tomonidan mediatorlar ajralib, shilliq qavatda yallig‘lanish jarayoni boshlanadi. Bu jarayon shishish, qizarish va discomfort keltirib chiqaradi. Allergic jarayonda shilliq qavat qon tomiri kengayib, qizil tusga kiradi. Allergiya vaqtida burun shilliq qavati va yondosh bo‘shliqlarda mucus sekretsiyasi ko‘payadi, natijada burundan oqish, yo‘tal va nafas olishning qiyinlashishi kuzatiladi. Allergiya uzoq vaqt davom etganda shilliq qavat epiteliysi qalinlashishi, ba’zi joylarda o‘lishi va funksional o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin. Allergic rinit – burun shilliq qavatining allergenlar ta’sirida yalli g‘lanishi bilan kechuvchi kasallik. Unda shilliq qavatda shish, hiperemiya, gipersekretsiya kabi o‘zgarishlar kuzatiladi. Burun yo‘llari torayishi tufayli bemorlarda nafas olish qiyinlashadi, ko‘p hollarda uyqu buzulishi kuzatiladi.

Xulosa: yuqori nafas yo‘llari allergic kasalliklari nafaqat so g‘liqni saqlash tizimiga, balki aholi salomatligiga va hayot sifatiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun mazkur mavzuni chuqur o‘rganish, kasallikni erta tashxislash va samarali davolash usullarini ishlab chiqish tibbiyot sohasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Баялиева А.Ж. и др. Клинические рекомендации по реанимации и интенсивной терапии анафилактического шока, Россия. 2015, 23 с.
2. Волосовец А.П., Кривопустов С.П., Мозкрская Е.В., Кривопустова М.В. Белок профилин как клинически значимый аллерген в развитии синдрома пкльцевой и пиуевой аллергии Здоровье ребенка. 2019.-Т.- 14. №.7.-С.434-443
3. Дранник Г.Н. Клиническая иммунология и аллергология М., ООО «Медицинское информационное агенство», 2013, с.392

4. Назаров О.А., Назаров Ж.А., Низомов Қ.Ф., Ўқув кўлланма //Клиник аллергия / Тошкент 2015 198 б.
5. Руководство для практических врачей Клиническая аллергия под ред. акад. РАМН, проф. Р.М. Хайтова. Изд-во «Медпресс-информ» 2012, 623 с.